



PEDAGOGIKA TARIXI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Imomova Nigora Paziljonovna

Andijon Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Agrobiologiya fakulteti tyutori.

O'zbekistonda milliy istiqlolga erishilgach, ma'naviy qadriyatlarini va aqliy salohiyatini qayta tiklash davriga qadam qo'yildi.

Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarda tub o'zgarishlar davri boshlanadi. Jahon xalqlari bilan aloqalari kengaya boshladi. Bu esa, milliy madaniyatimizni yuksaltirishni, ma'naviy merosimizni chuqur o'rganishni, milliy istiqlol mafkurasini yaratishni taqazo etadi.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat iqboli, kishilarni hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishidan kelib chiqadi.

Davlat jamiyatning madaniy-ilmiiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi» deyilgan.

Milliy qadriyat xalq o'tmishiga, buguni va kelajagiga, fan va madaniyatiga, taraqqiyotiga, milliy axloq-odobga nisbatan yuksak hurmat bilan belgilanadi.

Jumhuriyatimizda mustaqillik tantanasi tufayli milliy qadriyatlarni yuksalishi uchun keng yo'l ochildi. Xalq turmushining yaxshilanishi, rivojlanishi bilan aloqador bo'lgan fan va madaniyat taraqqiyotini ta'lim-tarbiyasiz tasavvur etish mumkin emas.

«Pedagogika tarixi» - pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi fan bo'lib, pedagogika-psixologiya ixtisosligi o'quv rejasida ixtisoslik fanlari uchun ajratilgan soatlar hisobidan o'tilishi ko'zda tutilgan.



«Pedagogika tarixi» fanini o'qitish jarayonida talabalar kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida insonning farzand tarbiyasiga munosabati, uning ijtimoiy ahamiyati, Markaziy Osiyo va Yevropa xalqlari va allomalarining pedagogik qarashlari, ilk har - hamda O'zbekistonda xalq ta'limi tizimining shakllanishiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o'zlari yashab turgan turonzaminda ilm-fan, madaniyat va ma'rifat rivoji, maktablar va xalq ta'limi taraqqiyoti to'g'risida Oliy ta'lim Davlat standartlari darajasida bilim oladilar.

«Pedagogika tarixi» fanini o'qitishning asosiy maqsadi talabalarning umumpedagogik bilimlarini oshirish, vazifasi esa «Pedagogika nazariyasi» fani yuzasidan egallagan bilimlarini cho'qurlashtirishdan iborat.

«Pedagogika tarixi» faniga kirish. «Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar», «VII asrdan XIV asrgacha maktab ta'limi va pedagogik fikr rivoji». «XIV-XVI asrlarda Movaraunnahrda maktab, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr», «XVII- asrdan XX asr boshigacha Turkiston o'lkasida maktab, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr rivoji». «Sho'rolar hukumronligining dastlabki davrida xalq ta'lim va pedagogika», «Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda yillarda O'zbekistonda xalq ta'limi va pedagogika fani rivoji», «Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Xalq ta'limi va pedagogika fanining taraqqiyoti», «Jahon pedagogika fani taraqqiyoti tarixi» singari boblarga bo'linadi. Yuqorida zikr etilgan har bir bobda ular qayd etilgan davrlarga va jo'g'rofiy hududlarga tegishli maktablar rivoji, ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari, ilg'or pedagogik fikrlar milliy mafkuramiz talablari asosida ilmiy-pedagogik tahlil etilib, o'rganiladi.

Pedagogika tarixi fani bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya maktab va pedagogik nazariyalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi jarayonlari va qonuniyatlari bilan tanishtiradi.

Pedagogika tarixi fanini o'rganishdan maqsad bo'lajak pedagoglarning umumiy madaniyat va ma'naviyat darajasini, pedagogik bilish va mahoratini, pedagogik tafakkur, fikrlash qobiliyatini o'stirishdan iborat. Tarbiya, maktab, pedagogik fikrlarga doir dunyoviy



bilimlar va ilohiy-axloqiy tarbiyaviy g'oyalar umuminsoniy va milliy- madaniy qadriyatlar sifatida o'rganilishi tahlil etiladi.

Markaziy Osiyoda maktab va pedagogika uzoq o'tmishga ega. Har ijtimoiy tizim, uning kelajagi, insoniyat istiqboli kishilarining hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotni qanday tarqqiy qilib kelinganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Bu «Avesto» ning ayrim sahifalaridan o'z ifodasini topgan.

Islomgacha bo'lgan davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati arab istilochisi Qutayba tomonidan tomonidan yo'q qilib tashlangan.

Islom va islomdan keyingi pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim-tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish hayotga tadbiiq etish bugungi kunning muhim muammosidir.

Mustaqillikni mustahkamlash uchun Sharq maktabi va peadgogikasini o'rganishga e'tiborni qaratmoq lozim. Chunki ilmu-fan dastlab Sharqda rivoj topgan. «Sharq Evropaning muallimidir» degan edi nemis olimi Xerler. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish lozim. Chunki millat o'z qadriyatini boshqa millat qadriyatidan ajratib olib yarata olmaydi. Har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos tomonlar bo'lsa ham, u umuminsoniy qadriyatlarning bir qismidir. Biz milliy uzligimizni anglamog'imiz, o'z tafakkurimizni kashf etmog'imiz lozim. O'tmishimizda unitilgan barcha qadriyatlarni puxta o'rganish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

VII-XII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan tarqqiy qildi. Aniq fanlarga qiziqish ortib bordi. Bu davrda Al-Xorazmiy, Farobiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Az-Zamaxshariy kabi buyuk olimlar dunyoga keldi. Dunyoviy ilmlar tug'ildi. Ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda insoniyat dunyosini, madaniy-ma'rifiy qarashlarni o'stirishda o'z davrida va keyinchalik muhim rol o'ynaydilar.



Inson kamolotiga oid ta'limot yaratdilar. Shuning uchun ham bu davrni tarixda Sharq uyg'onish davri deyiladi.

XV-XVI asrlarga kelib Turkistonda Qozizoda Rumi, Ulug'bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon kabi buyuk allomalar etishib chiqdi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlarida madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida taraqqiy etgan. Sho'ro hokimiyati o'rnatilgach Turkistonda yangi maktablar ochish va ularni mustahkamlash vazifalari ko'ndalang qo'yildi. Unda yoshlar ongiga yangi jamiyat g'oyalarini singdirish, shu ishlarini amalga oshiradigan pedagoglar tayyorlashga e'tibor qaratildi.

1924 yilda Turkiston parchalanish oqibatida milliy madaniyat yo'li to'sildi. Arab tilida o'qitish bekor qilindi. Avval lotin yozuviga so'ng rus yozuviga o'tildi. Bu esa Markaziy Osiyo xalqlarini o'z madaniyat tarixini o'rganish imkoniyatidan mahrum etdi.

Maktablarda dunyo fanini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan o'zbek fani va madaniyatining asoschilari musulmon olamining ulug' zotlari emas, balki o'zbek xalqi kamolotiga aloqasi bo'lmagan shaxslar faoliyati o'rgatildi. A. Yassaviy, Bedil kabi so'z ustalari tafakkur gulshani bog'bonlari xalq ta'limi tizimidan chiqarildi. Natijada o'zbek xalqi milliy axloq-odobi va tarbiya an'analaridan mahrum bo'la boshladi.

Pedagogika tarixi fani o'z faoliyatida boshqa fanlar bilan aloqada bo'ladi. Ular jumlasiga pedagogika nazariyasi, tarix, arxeologiya, sotsiologiya, falsafa, etika, adabiyot, gigiena, anotomiya va fiziologiya fanlari kiradi.

Pedagogika tarixining manbalari: pedagogika nazariyasi, pedagogik mahorat, psixologiya, falsafa, etika, pedagogik etika, ekologiya, huquqshunoslik, xalq ta'limi ekonomikasi, adabiyot, tarix, arxeologiya, qadimiy qo'l yozmalar, darsliklar, dasturlar, hukumat qarorlari-qonunlari, arxiv materiallari, pedagog matbuot va hokazolar.

Metodologiya-metodlar yig'indisi manbalari: Matematika o'qitish metodikasi, fizika o'qitish metodikasi, til va adabiyot fanini o'qitish metodi, tarix va geografiyani o'qitish metodi, pedagogika va psixologiya o'qitish metodi.



Pedagogika tarixi fanini o'rganish jarayonida ta'limning texnik vositalaridan kompyuter va axborot texnikalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, muammoli vaziyatlar, test usuli va reyting nazorati kabilardan keng foydalaniladi.

Pedagogika tarixi fanini o'rganishda ko'p yillik tarixiy, arxeologik tadqiqotlarning natijalari sifatida qo'lga kiritilgan ob'ektiv manbaalariga tayanib ish ko'riladi. Mazkur ob'ektiv manbaalar jumlasiga- pedagogika tarixi faniga doir adabiyotlarda quyidagilar kiritilgan.

1. Eng qadimgi yozma bitiklar. («Urxun Yenisey», «Qultegin», «Xorazm», Sug'd bitiklari va yozuvlari)
2. Arxeologik topilmalar. (Teshiktosh, Suyumalitosh, Zarautsoy, Qo'y qirilgan qal'a, Qirg'iz, Yerqo'rg'on va boshqalar)
3. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy-pedagogik, ma'rifiy-falsafiy asarlari.
4. Islom ta'limotining g'oyaviy asoslariga doir manbaalar.
5. Badiiy pedagogik asarlar.
6. Qadimiy qo'lyozmalar.
7. Turli davrlarda yaratilgan va pedagogik amaliyotda qo'llanilgan darslik o'rnidagi mabaalar, pedagogik ahamiyatga molik asarlar.
8. Turli davrlarda yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalar.
9. Turli davrlarga oid o'quv rejalari va dasturlari
10. Turli xalqlar va mamlakatlarning xalq ta'limi tarqiyoti, ilg'or kishilarning pedagogik qarashlariga doir manbaalar.
11. Milliy maxdudlik davridagi Turkiston va O'zbekiston xalq ta'limi tizimi va maktablari taraqqiyotiga doir manbaalar.
12. Milliy istiqlol davrida O'zbekistonda xalq ta'limi taraqqiyotiga oid manbaalar.

O'zbekistonda pedagogika tarixi fanini o'rganishda jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda davrlarga bo'lib o'rganish taqozo etiladi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichi ijtimoiy fikr rivojiga ob'ektiv ta'sir ko'rsatadi. Shu jumladan muayyan tarixiy davrdagi pedagogik fikr va qarashlar tizimida o'sh davrga xos bo'lgan ijtimoiy omillar, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, tarixiy voqea-hodisalar o'z



aksini topgan bo'ladi. Shuning uchun pedagogik fikr taraqqiyoti jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan ob'ektiv o'zgarishlarga tayangan xolda davrlashtiriladi.

Pedagogika fanidan mavjud manbalar va O'zbekiston Xalqlari tarixi asosida O'zbekistonda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi beshta davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Qadimgi zamonlarda VII asrgacha bo'lgan davr.
2. VIII asrdan XIX asr o'rtalarigacha ya'ni Turkistonni Rossiya imperiyasi bosib olguncha o'tgan davr.
3. XIX asrning 60-yillaridan XX asrning boshlarigacha o'tgan davr.
4. 1917-1920 yillarda 1991 yilgacha bo'lgan davr.
5. O'zbekiston Respublikasining mustaqil rivojlanish (1991 yil 1 sentyabrdan keyingi) davr.

O'tmishda ilg'or pedagoglar, mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, bularni o'rganish pedagogik tafakkurni o'sishiga pedagoglik madaniyatning ortishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. T.: «O'zbekiston» 1993
2. Barkamol avlod Orzusi. SH. Karimov taxriri ostida. T.: «Sharq» 1999.
3. Hoshimov K, M.Inomova. Pedagogika tarixi. Toshkent, 2006